



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQINING O'RNI

Jumayev Rustamjon
Norbekov Jaxongir

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabalari*

Annotatsiya: ushbu maqola shuhaqdakim O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini yuritishda, O'zbekiston yoshlari ittifoqi tashkilotining tutgan o'rni va ahamiyati, shuningdek, yoshlari ittifoqining maqsadi, strukturasi, amalga oshirilayotgan ishlar va natijalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qurultoy, konvensiya, immunitet, forum, struktura, konferensiya, individual, demokratik, kredit, kompaniya, medal.

Yoshlari Ittifoqi faol yoshlarni o'z ichiga olgan, 18-35 yoshdagisi fuqarolarni bir joyga jamlab, ularga ijtimoiy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy vazifalarni boshqarishga, ko'maklashish, yoshlarni ma'nan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishiga qaratilgan ko'plab dasturlar, tadbirlar va loyihibar ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash, shuningdek, yuqori immunitetga ega fuqarolik jamiyatini qurish, yangi texnologiyalarni o'rganish, ijtimoiy tashkilotlarda faol ishtirok etish, ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganish va boshqalar kabi ko'plab muhim masalalarda faol ishtirok etish, yoki zaif jihatlarni takomillashtirish maqsadlarini ko'zlagan tashkilot hisoblanadi. Yoshlari Ittifoqi tomonidan tashkil etilgan tadbirlar, forumlar, konferensiylar va boshqa samarali tadbirlar orqali yoshlari o'z fikrini ifoda etish, mustaqil qaror qabul qila olish, turli xil musobaqalarda ishtirok etish va o'z sohalari bo'yicha individual rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Yoshlari Ittifoqining maqsadi — yoshlarni faol siyosiy hayotga tayyorlash, ularning o'zlarini qiziqqan sohaga yetuk mutaxassisib bo'lib ulg'ayishlarini ta'minlashdir. O'zbekiston yoshlari ittifoqi haqida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 29-iyul kuni "O'zbekiston yoshlari bayram tabrigi"da quyidagicha nutq so'zлади:

Qadrli yoshlari, aziz o'g'il-qizlarim!

Sizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni mamlakatimizda birinchi marta nishonlanayotgan qutlug' ayyom — Yoshlari kuni bilan chin qalbimdan samimiylar muborakbody etaman. Mana shunday quvonchli kunda avvalo yurtimizda keyingi paytda yoshlari bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilgani, o'g'il-qizlarimizning ijtimoiy faolligi, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hissi kuchayib borayotganini, zamonaviy, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etishda navqiron avlodimizning munosib ishtirok etayotganini barchamiz minnatdorlik bilan e'tirof etamiz. Ayniqsa, sizlarning tashabbusingiz bilan bundan bir yil muqaddam O'zbekiston yoshlari ittifoqi tashkil etilgani yoshlari, butun el-yurtimiz hayotidagi muhim voqeasi bo'ldi. Faqat bir yil davomida O'zbekiston yoshlari ittifoqi tavsiyasi bilan 4 ming 300 ga yaqin yigit-qizlarimizga banklar tomonidan 216 milliard so'm imtiyozli kreditlar berilgani, 184 ming 300 dan ziyod farzandlarimiz ish bilan

ta'minlangani e'tiborga loyiq. Bu borada yosh, istiqbolli kadrlar uchun tajriba va mahorat maktabini o'tayotgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi saflarida toblangan, zamonaviy bilim va ko'nikmaga, yetakchilik salohiyatiga ega bo'lgan ko'plab yoshlar vazirlik va idoralar, yirik kompaniya va banklar, xo'jalik birlashmalariga mas'ul lavozimlarga tayinlanayotgani hayotimizga yangicha ruh va mazmun bag'ishlamoqda. Jonajon Vatanimizning yangi qiyofasini yaratishda o'z mehnati, tashabbuskorligi va ma'naviy fazilatlari bilan boshqalarga o'rnak va namuna bo'layotgan azmu shijoatli yoshlarimiz uchun "Mard o'g'lon" davlat mukofoti hamda "Kelajak bunyodkori" medalini ta'sis etganimiz va bugun sizlarning orangizda shu mukofotlarning ilk sovrindorlari borligi barchamizga mammuniyat bag'ishlaydi. Bu haqda gapirganda, O'zbekiston yoshlar ittifoqining navqiron yigit-qizlarni ish bilan ta'minlash, uyushmagan yoshlar bilan ishslash, farzandlarimiz o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlash lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz barchamiz endigina bir yillik shakllanish yo'lini bosib o'tgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tezroq ulg'ayishi, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy tizimida, yoshlarimiz hayotida o'zining mustahkam va munosib o'rnini topishini istaymiz va buning uchun zarur amaliy yordam berishga tayyormiz. Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan yoshlarga doir davlat siyosati va uning amaliy natijalari jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda. Mamlakatimiz tomonidan bu borada ilgari surilayotgan tashabbuslar, jumladan, BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining Yoshlarga murojaati va uni amalga oshirish bo'yicha harakatlar dasturini qabul qilish va amalga oshirish borasidagi takliflarimiz xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanmoqda. Biz – barchamiz, qayerda bo'lmaylik, yagona O'zbekiston farzandlari ekanimizni anglab, shu buyuk tuyg'uni e'zozlab yashasak, albatta kam bo'lmaymiz. Sizlarni Yoshlar kuni bilan yana bir bor samimiy tabriklab, barchangizga yangi yutuqlar, baxt va omad tilayman. Hamisha sog'-omon bo'ling, aziz farzandlarim!⁷⁵

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yuqorida muhtaram prizidentimiz o'zining bayram tabrigida aytib o'tganidek, mamlakatimiz yoshlarining hayotida muhim ahamiyat kasb etgan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topganidan so'ng, yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish masalasi alohida o'rin tutdi. Har bir tashkilotlarda yoshlar yetakchilari shakllantirildi. Yoshlar ittifoqining Qurultoyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z taklif va tashabbuslarini ilgari surdi. "Kelajak bunyodkori" medali, "Mard o'g'lon" davlat mukofotlarini ta'sis etilishi, yoshlar ittifoqining faol a'zolariga oliv ta'limga kirish kabi imtiyozlar shular jumlasidandir. Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston yoshlar ittifoqi yoshlarning o'z kelajaklarini porloq qura olishlari uchun ochilgan samarali va qisqa yo'l hisoblanadi.

⁷⁵ Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston yoshlariga bayram tabrige". 29.06.2018, [http://www.president.uz/ru/1876]



FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. SHAVKAT MIRZIYOYEV. XALQIMIZNING ROZILIGI BIZNING FAOLIYATIMIZGA BERILGAN ENG OLIY BAHODIR. 2-kitob, “O’ZBEKISTON” NMIU, 2018, 2020
2. [<https://yoshlarittifoqi.uz/>]
3. [<http://www.president.uz/ru/1876>]